

UDK: 801.82.81.302

**HARBIY TERMINLARINING LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR
SIFATIDA IFODALANISHI**

(ingliz va o'zbek tilida qo'llanilishi misolida)

Kurganov Anvarjon Muxtorovich,*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi "O'zbek tili va xorijiy tillar" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-7015-5919>E-pochta: anvarjon74_74@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi harbiy terminlarning o'zbek tiliga tarjimasida yuzaga keladigan lingvokulturologik xususiyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda harbiy terminologiyaning semantik ko'p ma'nohiligi, kontekstga bog'liqligi hamda milliy madaniy omillari yoritilgan. Jumladan, landing, launch, cavalry, side arm, handgun kabi terminlarning turli kontekstlarda turlicha talqin qilinishi tarjimada muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ingliz harbiy terminlarini o'zbek tiliga adekvat tarjima qilishda qo'llaniladigan asosiy usullar — kalkalash, transkripsiya, qisman tarjima hamda diskriptiv (tasviriy) tarjima usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, harbiy terminlarning to'g'ri talqin qilinishi tarjimonning lingvokulturologik bilimlari, sohaviy tayyorgarligi hamda kontekstni chuqur anglashiga bevosita bog'liq ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: harbiy terminologiya, lingvokulturologiya, harbiy tarjima, ingliz tili, o'zbek tili, termin tarjimasi, ko'p ma'nohilik, kontekst, kalkalash, transkripsiya, diskriptiv tarjima, adekvat tarjima.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности, возникающие при переводе военных терминов английского языка на узбекский язык. В исследовании освещаются такие аспекты военной терминологии, как семантическая многозначность, зависимость от контекста, а также их связь с национально-культурными факторами. В частности, показано, что такие термины, как landing, launch, cavalry, side arm, handgun, в различных контекстах могут интерпретироваться по-разному, что играет важную роль в процессе перевода. Кроме того, рассматриваются основные методы, применяемые при адекватном переводе английских военных терминов на узбекский язык: калькирование, транскрипция, частичный перевод и дескриптивный (описательный) перевод. По результатам исследования обосновывается, что правильная интерпретация военных терминов напрямую зависит от лингвокультурологических знаний переводчика, его профессиональной подготовки в данной сфере, а также глубокого понимания контекста.

Ключевые слова: военная терминология, лингвокультурология, военный перевод, английский язык, узбекский язык, перевод терминов, многозначность, контекст, калькирование, транскрипция, дескриптивный перевод, адекватный перевод.

Abstract. The article analyzes the linguocultural features in translation of English military terms into Uzbek. The article reveals semantic polysemy, context dependence and national and cultural factors of the military terminology. In particular, the terms such landing, launch, cavalry, side arm and handgun are interpreted differently in various contexts that plays a significant role in translation. In addition, the main methods as calque translation, transcription, partial translation and descriptive translation are analyzed in adequate translation of English military terms into Uzbek. The research results show that the correct translation of the military terms depends on the translator's linguocultural competence, professional knowledge of the field and at the same time deep understanding of the context.

Keywords: military terminology, linguoculturology, military translation, English language, Uzbek language, term translation, polysemy, context, calque translation, transcription, descriptive translation, adequate translation.

Kirish. Harbiy terminologiya muayyan tarixiy davrlarga xos lingvokulturologik vaziyatni aks ettirgan holda bosqichma-bosqich rivojlanadi, muayyan xalqning milliy

mentalitetini lisoniy kodlar orqali ifoda etadi. Shunday ekan, harbiy terminlarni to'g'ri va adekvat tarjima qilish uchun tarjima qilinayotgan tilnigina emas, shu tilda muloqot qiluvchi xalqning tarixi, turmush tarzi, urf-odatlarini, milliy madaniy xususiyatlari hamda harbiy sohasining o'ziga xos jihatlarini chuqur va teran bilish muhim.

Ingliz tili harbiy terminologik birliklarini tarjima qilishdagi lingvokulturologik xususiyatlar, uslubiy bo'yoqdorlik, ma'no ko'chish va ko'p ma'nolilik hodisasi tarjimonga muayyan qiyinchiliklar tug'diradi, albatta. Bunday holda tarjimaning adekvatligini ta'minlash ko'p jihatdan tarjimonning kasbiy mahoratiga, tarjima usullarini to'g'ri tanlay olishiga hamda sohaga oid bilim va ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirganiga bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili. Ingliz tilida **landing** termini "qo'nish (samolyot)", "maydon", "material (qurilishda)", "temir yo'l platformasi", "bo'shatish (yukdan)", "desant tashlash", "kemani portga olib kelish" kabi ma'nolarni aks ettiradi. Biroq, harbiy sohaga oid matnlarda, kontekst nuqtai nazaridan **landing** qaysi ma'noda kelgani, harbiy sohada uning qaysi bir ma'nosi semantik jihatdan dominantlik qilayotganini bilish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Masalan: *American forces have begun a big landing – Amerikaliklar katta ko'lamdagi desantlarni tashlashni boshlashdi.* [1.15]

Shuningdek, **launch** termini o'ndan ortiq ma'noga ega. Vaholanki, bir komponentli terminlarning tarjimada ko'p ma'noliligi ularni to'g'ri tushunishni yanada murakkablashtiradi va tarjimani kontekstga to'la bog'lab qo'yadi.

L.L.Nelyubin tadqiqotlari xulosalaridan kelib chiqib [2:280], ingliz tilidagi harbiy terminlarning talqini nuqtai nazaridan uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Narsa-predmet, voqelik va realiyalarni ifodalovchi, talqinida qiyinchilik tug'dirmaydigan milliy voqelik va realiyalari bilan bir xil bo'lgan, ya'ni, kalkalangan terminlar. Masalan: **War ship** – "harbiy kema", **army aviation** – "armiya aviatsiyasi", **military police** – "harbiy politsiya", **field uniform** – "dala formasi".

2. Harbiy sohaga oid matnni adekvat tarjima qilishda o'zbek tilidagi muqobilini tanlab olish orqali almashtiriladigan terminlar. Masalan: **classified information** - "maxfiy ma'lumotlar", **noncommissioned officers** - "serjantlar tarkibi", **designated marksman** - "piyoda qo'shin mergani", **effective rate of fire** - "harbiycha tez otish", **continuous wave** – "telegraf rejimidagi ish", **baby bomb** – "kichik kalibrli bomba".

3. Xorijiy voqelik realiyalarini ifodalaydigan, biroq, milliy tilda umum qabul qilinmagan, terminologik muqobiliga ega bo'lmagan toifadagi terminlar tarjimonga katta qiyinchilik tug'diradi. Masalan: **ensign** – "ensin (flotdagi kichik zobit)", **stealth** – "past aniqlash darajasi", **fire-and-forget missile** – "avtomatik tarzda nishonni aniqlovchi raketa".

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, bu kategoriyadagi terminlar quyidagi usullar orqali tarjima qilinishi to'g'ri hisoblanadi.

- transkripsiya yoki so‘zma-so‘z kalkalash yo‘li orqali tarjima qilish. Masalan: **gestapo** – “gestapo”, **warrant officer** – “uorent-ofitser”, **commodore** – “kommodor”, **drone** – “dron”;

- sohaga oid terminlarni to‘liq yoki qisman tarjima qilish. Masalan: **chief master sergeant** – “bosh master-serjant”, **second lieutenant** – “ikkinchi leytenant”, **nuclear no-first-use policy** – “birinchi bo‘lib yadro qurolini qo‘llamaslik siyosati”, **photo interpreter** – “aerofotosuratlar deshifratori” singari terminlar shular jumlasidandir;

- harbiy terminlarni inglizcha termin ma‘nosini tasniflash/tasvirlash (diskriptiv) yo‘li orqali tarjima qilish. Masalan: **payload** – “jangovor texnika (raketalar)”, **attack problem** - “hujumkor jang olib borish bo‘yicha taktik vazifa”, **to scramble fighters** - “tashvish signali bo‘yicha qiruvchi samolyotlarni havoga ko‘tarish”, **foxhole** - “avvaldan jihozlangan o‘q otish handagi”, **arresting** - “aerofinisher yordamida aviatashuvchi palubasiga qo‘nishda samolyotni to‘xtatish” va b.

Bundan tashqari, AQSH harbiy terminlari, realiyalari va lingvokulturologik aspektda qo‘llaniluvchi harbiy leksik birliklar mavjudki, ularning muqobili o‘zbek tilida mavjud bo‘lmaganligi bois tarjima jaryonida bir qator murakkabliklar tug‘diradi. Fikrimizning tasdig‘i sifatida quyidagi harbiy terminlarni keltirishimiz mumkin.

Tahlillar va natijalar. Ingliz tilidagi **armor cavalry**, **air cavalry** birikma terminlarning lug‘atlarda “bronekavaleriya” shaklida noto‘g‘ri berilganini qayd etish o‘rinli. Aslida, bu terminning ma‘nosi “otliq zirhli jangchilar” ma‘nosi bilan assotsiativ bog‘liqlik bo‘lganligi sababli zamonaviy realiyalarga mos kelmaydi. Shuningdek, Pegasdagi otliqlar rasmini chizayotgan “havo kavaleriyasi” variantini bundanda noadekvat tarjima deb hisoblashga to‘g‘ri keladi. Aslida, **savalry** (suvoriy, otliq) leksemasining etimologik ma‘nosi harbiy harakatlarni olib borish yoki harakatlanish uchun otdan foydalanilgan **qo‘shin turini** anglatadi. Ammo, bu holatda **cavalry** leksemasining ikkinchi darajali nominatsiyasi nazarda tutilayotganini anglash juda muhim. Terminning ikkinchi darajali nominatsiyasini tanib olish uchun o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlardan boxabar bo‘lish, kontekstni, shuningdek, axborot manbaini yaxshi o‘zlashtirish maqsadga muvofiq. Natijada mazkur termin hozirgi davr nuqtai nazaridan otlarda emas, zamonaviy zirhlangan mashinalar, vertolyotlarda harakatlanadigan AQSH armiyasi bo‘linmalarini anglatishi o‘z-o‘zidan ma‘lum bo‘ladi. Holbuki, ingliz tilida **cavalry** termini vositasida **horse cavalry**, **armored cavalry**, **air cavalry**, **heavy cavalry**, **light cavalry** kabi so‘z birikmalar hosil bo‘lgan va faol qo‘llaniladi. Tarjimada ulardan faqat birinchisi rus tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi, ya‘ni “kavaleriya, konnitsa”, boshqalarining aniq, kontekstual ma‘nolarini (*mobil razvedka zirhli bo‘linmalari*, *razvedka aeromobil bo‘linmalari*) berish uchun maxsus harbiy terminlar lug‘atlari (ikki tilli, tarjima, izohli)ga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Anglashiladiki, **cavalry** terminining hozirgi davr tarjima mezonlariga muvofiq **mobil qo'shin** ma'nosida talqin qilinishi o'ziga xos lingvokulturologik xususiyatdir.

Harbiy termin hisoblangan **side arm/weapon**, **handgun** terminlari aksariyat lug'atlarda[3:46] "**shaxsiy qurol**" ma'nosida berilgan. Ammo, ular anglatadigan ma'no nazarda tutilgan tushuncha ma'nosining adekvatligini to'liq ta'minlamagan. Chunki, **side arm/weapon** termini asosan *kamarga bog'lab olib yuriladigan qurol* ma'nosini anglatadi. Vaholanki, **shaxsiy qurol** deganda o'zini himoya etish va yaqin masofadan hujum qilishga mo'ljallangan shaxsiy qurol turi tushuniladi. Bu toifadagi qurol ham o'qotar, ham **sovuq qurol** bo'lishi mumkin, ularga **to'pponcha**, **revolver**, **xanjar**, **qilich** kabilar kiradi. Bunday vaziyatda "**shaxsiy qurol**" tushunchasini **personal arm** termini orqali berish to'g'ri bo'ladi [2:136]. Bundan tashqari, inglizcha **handgun** termini faqat **o'qotar qurolga** nisbatan qo'llaniladi. Bunga **to'pponcha va revolverlar** kiradi va ushbu terminning o'zbek tilidagi muqobili "**shaxsiy o'qotar qurol**" yoki "**stvol**" deyiladi.

Bunday vaziyatlarda gap nima haqida ketayotganiga qarab, kontekst nuqtai nazaridan harbiy terminlarning birlamchi, ikkilamchi nominatsiyalariga e'tibor qaratish tarjimaning adekvatligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Shu o'rinda, A.Potebnya nima uchun aynan bir tilda bitta narsa-predmetni ifodalash uchun bir nechta so'z ishlatilishi va aksincha, turli narsa-predmetlarni bitta so'z bilan ifodalash mumkinligini tushuntirib bergan. Shu ma'noda tarjimon termin mazmunini aniq talqin qilish uchun uning ontologik maqomi, so'zning ichki shaklini hisobga olishdan tashqari til birliklarining o'ziga xos lingvokulturologik xususiyatlarini puxta o'zlashtirish lozimligi e'tirof etiladi.

Yuqorida keltirilgan faktik misollardan anglash mumkinki, birinchidan, terminlarning o'ziga xos ma'no nozikliklarini to'g'ri tushunish, to'g'ri anglash orqali adekvat tarjimaga erishishda yuqori ehtimollik mavjud bo'lsa, ikkinchidan, xorijiy va milliy harbiy terminlarning linvomadaniy, harbiy voqelik, qurolli kuchlar, mudofaa tuzilmalari bilan bog'liq terminlar va realiyalaridan boxabar bo'lish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dictionary of Military Terms. – 3rd edition by Richard Bowyer. London. 2007.
2. Нелюбин Л. Л. Учебник военного перевода. Английский язык. Общий курс [под ред. д-ра филол. наук проф. Л. Л. Нелюбина] / Л. Л. Нелюбин, А. А. Дормидонтов, А. А. Васильченко – М.: Воениздат, 1981. – С. 380.
3. АБВУ Lingvo. Экономическая школа. 2006; Dictionary of Military Terms. – 3rd edition by Richard Bowyer. London, 2007.